

TYPES OF USE OF CONNECTORS IN UZBEK AND KARAKALPAK LANGUAGES

Roza Aytbayeva

Host Vocational School

Uzbek language teacher

Conjunctions are used in both languages to connect simple sentences, compound parts, or words in a compound sentence. Sometimes they are used alone, sometimes they are used repeatedly. Uzbek conjunctions such as or, or, or, yoinki are used both singly and repeatedly.

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA BOG'LOVCHILARNING QO'LLANILISHI JIHATDAN TURLARI

Roza Aytbayeva

Xo'jayli kasb-hunar maktabi

o'zbek tili fani o'qituvchisi

Bog'lovchilar har ikki tilda ham qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni, uyushiq bo'laklar yoki so'zlarni bog'lash uchun qo'llaniladi. Ba'zan ular yakka holda ishlatilsa, ba'zan takroriy holda qo'llaniladi.

O'zbek tilidagi yo, yoki, yoxud, yoinki kabi bog'lovchilar yakka holda ham, takroriy holda ham qo'llaniladi.

O'zbek tilida yakka qo'llaniluvchi bog'lovchilar: va, hamda, ammo, lekin, a, biroq, balki, holbuki, vaholanki, gar//, agar//, agarda//, basharti, chunki//, garchi//, garchand//, go'yo//, go'yoki//, ki//, -kim//, esa, ya'ni, shuning uchun.

Takroriy qo'llaniluvchi bog'lovchilar: dam -dam, ba'zan -ba'zan, ham -ham, bir, bir, xoh -xoh, goh -goh va hokazo.

Qoraqalpoq tilida yakka qo'llaniluvchi bog'lovchilar *hámde, biraq, biraqta, solay bolsada, sonda da, solayda, degen menen, sóytsede, taǵi, jáne, lekin, al, soning arqasında, eger, egerde, aqibetinde, soniń aqabetinde, soniń saldarınan, soniń nátiyjesinde, nátiyjede, sonlıqdan, sebebi (sebep), nege deseń, óyitkeni, sol sebepli, soniń ushun, sol ushun*.

Takroriy qo'llaniluvchi bog'lovchilar *gá-gá, geyde-geyde, gáde-gáde, birde-birde, bazda-bazda, birese-birese, ári-ari, bir-bir, ya-ya, yamasayamasa, yaki-yaki, ne-ne, hám-hám, (menen, penen, benen kabi bog'lovchilar ayrim holda ham, takroriy holda ham qo'llaniladi).*

O'zbek tilida takroriy bog'lovchilar yuzasidan bilishimiz shart bo'lgan quyidagi holatlar mavjudki, biz ularni puxta bilmasak xatoga yo'l qo'yishimiz mumkin (so'zlarni so'z turkumlarga ajratishda):

1. Takroriy bog'lovchi o'z bog'langan so'zdan (qismdan) oldin keladi:

Goh u goh men keldim.

Ham o'zi bog'lagan qismdan oldin kelsa, **bog'lovchi** (ham o'qidim, ham yozdim) **keyin kelsa yuklama (o'qidim ham, yozdim ham)**

2. Takroriy bog'lovchilikning bir qismi faqat takror kelganda bog'lovchi hisoblanadi.

Yakka qo'llanganda:

ham-yuklama:

Men ham borman

ba'zan-ravish:

Ba'zan borib turaman

bir-son:

Bir ko'rdim men uni

dam-ot: *Dam oldim.*¹

Qoraqalpoq tilidagi bog'lovchilarining o'zbek tilidagi bog'lovchilaridan farqli xususiyatlaridan biri bu qoraqalpoq bog'lovchilarining turli nomlar bilan atalishidir.

Bu haqida ko'pgina til tarixi boyicha ilmiy kitoblar mavjudki, biz izlanishlar mobaynida ularni varaqlashga erishdik. Va quyidagi ma'lumotlarni oldik: Dotsent **Qdirbaev Axmet** muallifligida nashr etilgan kitobda qoraqalpoq tilidagi bog'lovchilar mana shunday turlarga ajratilgan:

1. **Tirkewish dânekerler:** da/de, ta/te, jáne, hám.
2. **Qarsilas dânekerler:** biraq, sonda-da, degen menen.
3. **Náwbetles dânekerler:** ya, yaki, yamasa.
4. **Sebep dânekerler:** sonlıqtan, óytkeni, sebebi, sol sebepli.

Jamoa muallifligida (kollektiv ish) nashrdan chiqqan "Házirgi qaraqalpaq tili" kitobida esa quyidagicha bog'lovchilar guruhlarga ajratilgan:

1. **Biriktiriw dâneker:** -jáne, jáne de, hám, hám de, taǵı, sonnan soń, ta, te, menen, benen, penen.

2. **Qarsilas dâneker:** - biraq, biraq ta, jalǵız - aq, lekin, tek, tek te, al, bálki, sonda da, soytse de, bolmasa, óytpiegende, degen menen, solay da.

3. **Náwbetles dâneker:** - ya, yaki, gá, geyde (gáde), birese, yamasa, bazda.

4. **Sebeplik dâneker:** - sebebi, óytkeni, nege deseń.

5. **Waqitlıq dâneker:** - onnan keyin, sonnan beri, onnan soń, sonnan soń

6. **Salistiriw dâneker:** -kop emes, qanshalli, sonshalli, qansha sonsha, negúrlım, solgúrlım.

7. **Nátiyje dâneker:** sonıń ushiń, bunıń ushin, onıń ushin, sonlıqtan, sol sebepli.

8. **Shártlik dâneker:** eger, egerde.²

1985 yili nashrdan chiqqan "Qoraqalpoq tili" kitobida bog'lovchilar vazifasiga ko'ra quydagı turlarga ajratilgan:

I. Baylanıstırıwshi dâneker:

1. **Baylanıstırıwshi dâneker:** -da -de, -ta -te, menen (benen, penen), jáne, taǵı.

2. **Qarsi'li'qli' da'neker:** biraq, qalayda, sonda da, óytken menen, degen menen.

3. **Ayırıw dâneker:** yamasa, ya bolmasa, birese.

II. Qospa dânekerler:

a) **sebep dâneker:** óytkeni, sebebi, nege deseń.

b) **qarsılıqlı dâneker:** sol ushin, sonıń ushin, sonlıqtan, sol sebepli, sonıń nátiyjesinde, sol sebepli.³

c) **shárt dâneker:** eger, eger de.

d) **waqt dâneker:** mezgil, waqt jaǵınan bir - birine baylanıstırıwshi sozler kiredi.

Yuqoridagi kitoblarni ko'rib chiqish orqali shu narsaga amin bo'ldikki, hozirgi qoraqalpoq tilidagi bog'lovchilar bilan tarixda (kitoblarda qayd qilingan ma'lumotlar) qo'llanilgan bog'lovchilar o'rtasida farqli jihatlar talaygina. Biz o'z fikrimizni quyidagi jadvalda aks ettirishga harakat qilamiz:

Hozirgi qoraqalpoq adabiy tilidagi bog'lovchilar	1946-yilda nashr etilgan kitobdagı bog'lovchilar	1974-yilda nashr etilgan kitobdagı bog'lovchilar	1985-yilda nashr etilgan kitobdagı bog'lovchilar
Biriktiriwshi dâneker	Tirkewshi dâneker	Biriktiriw dâneker	Baylanıstırıwshi Dâneker
Qarsilas dâneker	Qarsilas dâneker	Qarsilas dâneker	Qarsılıqlı dâneker

¹ Mengliev B., Xoliyorov O ko'rsatilgan asar., 223-bet.

² Házirgi qaraqalpaq tili Nókis "Qaraqalpaqstan", 1974., I-bólím., Morfologiya, 260-264betlar

³ Nasirov D., Qayipbaev J., Dospanov O "Qaraqalpaq tili" No'kis., 1985., Fonetika, Leksikologiya, Morfologiya, Sintaksis. 194-198 betler.

Awispali dáneker			
Gezekles dáneker	Náwbetles dáneker	Náwbetles dáneker	Ayiriw dáneker
Sebeb dáneker	Sebep dáneker	Sebeplik dáneker	Sebep dáneker
Nátiyje dá'neker	-	Nátiyje dáneker	-
Shárt dáneker	-	Shartlik dáneker	Shart dáneker
-	-	Waqıtlıq dáneker	Waqıt dáneker
-	-	Salıstırıw dáneker	-
-	-	-	Saldarlıq dáneker

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kitoblardagi ma'lumotlar bilan hozirgi qoraqalpoq adabiy tilidagi ma'lumotlar (bog‘lovchi turlari, nomlanishi) farqlanadi.

Awispali, gezekles dánekerler hozirgi qoraqalpoq tilida da'neker ya'ni bog‘lovchilarning alohida ikki turi sanaladi. Kitoblarda esa ikkalasi qo‘shilgan holda berilgan. Shuningdek kitoblarda hozir qoraqalpoq adabiy tilida bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi so‘zlar “**dánekerler turi**” sifatida e’tirof etilgan. Jumladan vaqtin anglatuvchi so‘zlar “**waqıtlıq dáneker**”, ish-harakatning nimaga bog‘liq ekanligini anglatuvchi so‘zlar (masalan: sol ushın, sol sebepli...) “**saldarlıq dánekerler**”ga kiritilgan.